

O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi

Navoiy davlat pedagogika instituti

Jismoniy tarbiya fakulteti

“Jismoniy tarbiya nazariyasi va sport turlari” kafedrasi

Referat

Futbol o'yin texnikasi.

Bajardi: Jumaqulov A

NAVOIY- 2011 YIL.

Futbol o'yin texnikasi.

REJA:

1. Futbol o'yinining paydo bo'lishi va rivojlanishi.
2. Futbol texnikasining klassifikatsiyasi.
3. Harakatlanish texnikasi
4. Maydon o'yinchisining texnikasi
5. Darvozabon o'yin texnikasi.

Tanyach tushunchalari: Qo'yilgan maqsadga erishmoq uchun o'yinda xilma-xil tarzda qo'shib turib qo'llaniladigan maxsus usullar to'plami futbol texnikasini tashkil etadi.

Texnik usullar – bu futbol o'yinini vujudga keltirish vositasi demak yuksak sport natijalariga erishish ko'p jihatdan futbolchilarning ana shu xilma xil vositalarni qanchalik to'liq bo'lishiga raqib jamoa o'yinchilari qarshilik ko'rsatayotgan ko'pincha charchoq orta borayotgan sharoitda o'yin faoliyatidagi turli holatlarda ularni qanchalik mohirlik bilan samarali qo'llanishga bog'liq. Futbol texnikasini yaxshi bilish futbolchilarning har tomonlama tayyorgarlik ko'rishi va garmonik kamol topishidagi ajralmas qismidir.

O'yin taraqqiyotining yuz yildan ortiq tarixi maboynida futbol texnikasida muayyan o'zgarishlar bo'ldi. Bu evolyutsiyaning asosiy yo'nalishlari qo'yidagilar: - boshning chakka qismi va orqasi bilan zarba berish. To'pni boldir bilan to'xtatish singari noratsional usullarni qo'llanish ancha kamayib ketdi Oyoq yuzi bilan zarba berishdan to'pni son va ko'krakda to'xtatishdan to'pni qo'l bilan tashlashlar darvozabon texnikasidan foydalanish koeffetsenti oshdi. Aldash harakatlarini fintlar ko'paydi.

- Hozirgi futbodagi texnik usullari tezligi va aniqligini oshirish uchun kuchdan yetarlicha tejab foydalanish imkonini beradigan beomexanika nuqtai nazaridan maqbul harakat tizimi bilan harakatlanadi tez va ishonchli sodda samarali bo'lsin! Futbol tenikasini qo'llanishga qo'yiladigan hozirgi kundagi talablar shundan iborat.

Futbol o'yinining paydo bo'lishi va rivojlanishi.

Futbol qadam zamonlarda paydo bo'lgan qadimiy yunonlar to'p o'yinini shunchalik qadirlashganlarni uni hatto gimnaziya maxsus maktablarning jismoniy mashqlar dasturiga kiritganlar ozgina bola ham futbolga o'xshash to'p o'yini 180 yilda tilga olinadi. Polluksning yunoncha lug'atida o'yinchilar ikki jamoalarga bo'linganligi yozilganyu Har qaysi partiya to'pni raqib o'yini maydon orasiga o'tkazishga harakat qilardi. Harakter jihatdan bu o'yin ko'proq hozirgi regbi

o'yiniga o'xshab ketadi. Lekin u o'yinda qo'l bilan o'ynash taqiqlangan edi. Qadimgi to'p o'yinlarining qaysi biridan hozirgi futbol kelib chiqqanini aniqlashning iloji yo'q. Biroq jismoniy madaniyat va sport tarixi mutaxasislarning aksariyati futbol ko'proq "garpastut" degan qadimgi Rim o'yinidan kelib chiqqan bo'lib, Britaniya, Golliya va G'arbiy yevropaning boshqa mamlakatlariga bu o'yinni rim regionlari olib kelganlar deb taxmin qilganlar.

Inglizlar oyoq to'pi o'yini Britaniya orollarida IX asrlaridayoq ma'lum bo'lgan deb davo qiladilar. G'arbiy yevropa davlatlarida bu singari o'yinlar shu asr o'rtalarida mustaqil tarzda ham ayrim elementlarni bir-biridan o'rganish yo'li bilan ham rivojlangan borgan deb taxmin qilsa bo'ladi. 1213 yili ingliz podshosi Eduard 2 shahar ichkarisida futbol o'yinini o'ynashni taqiqlaydi. Podshonig shu farmoyishi ingliz futbol ittifoqining arxivida saqlanib qolgan. "Katta to'p quvgandagi ur yiqit shaharlarida katta tupalon chiqarayotgani va yomon ta'sir ko'rsatayotgani uchun deyiladi. Farmoyishda, itoat etmaganlar qamoqqa tashlanishini ta'qidlab bu o'yin endilikda shaharlarda o'ynalishini podsholik nomidan taqiq etaman. Bunday taqiqlanishni sababi o'yin paytidagi tartib buzarlklardagina emas balki shaharliklarning kamol otishida va hatto hunarmandchilik ishidan chalg'itishda ham edi va bosidan 1349 yili ingliz podshosi Eduard 2 xam Londonda futbol o'yinishi o'ynashni man qiluvchi farmoyish chiqardi. Fransuz podshosi Kari 5 esa undan ham o'tib tushdi. 1369 yil xalq o'yinlarning hammasini man etdi Italiyada futbol 1-chi bor 1400 yilda tilga olinadi. Angliya bilan Fransiyada oyoq to'pi o'yini halqning ko'ngil ochar mashg'uloti bo'ladi, Italiyada ko'proq kibor doiralarning o'yin bo'lib qoladi.

XIX asrning xususan shu asr o'rtalarida kelib sport metodi jismoniy tarbiyaning eng maqbul metodi deb topilib sport hamda sport o'yinlari bo'lib qolgandan keyin futbol tarixida yangi bosqich boshlanadi. Oyoqda to'p o'ynash birinchi golda ingliz kollejlari hamda Universitetlarida yoyiladi. XIX asrning 2-chi yarmida futbol o'yinida hozirgi vaqtdagidan boshqacharoq bo'lgan. Angliya jamoasida 7- o'yinchi hujumda, birinchisi yarim himoyada musoboqalashgan ularda yana 2 ximoyasi va 1 darvozabon bo'lgan. SHotlandiyada jamoasida 6 hujumchi, 2 yarim himoyachi, 2 –himoyachi va darvozabondan iborat edi. Keyingi yili ingliz futbol jamoalari ham o'yinchilarning shotlanchasiga joylashtirishga o'tadi. CHunki ana shunday joylashtirish o'zini oqlagan bo'lishi kerak. Qoidaga kirgan o'zlarini va takomillashuvlar so'zsiz o'yin texnikasi va taktikasiga ta'sir qilmay qolmas edi. XIX asrning 80 yillarga futbol o'yini kontinental yevropa qitasi mamlakatlariga ham tarqaladi. 1875 yilda Gollandiya sal keyinroq Daniyada o'ynala boshlanadi. Daniya ko'p o'tmay qatada futbol bo'yicha yetakchi o'ringa chiqib birinchi jahon urushiga qadar shu mavqeini saqlab keldi. Futbol 1882 yil SHvetsariyada, 1890 yilda CHexiyada. 1894 yilda Avstriyada o'ynala boshlanadi.

Futbol texnikasining klassifikatsiyasi.

Futbol texnikasining klassifikatsiyasi texnik priyomlarini umumiy (yoki o'xshash) spetsifik belgilarga qarab guruhlariga bo'limda iborat. O'yin faoliyati

harakterga qarab futbol texnikasida 2 ta yirik bo'lim ajratiladi. Maydon o'yinchisi texnikasi darvozabon texnikasi har qaysi bo'lim esa qo'yidagi xarakterlanish texnikasi va to'pni boshqarish texnikasi bo'limlariga bo'linadi kichik bo'limlar usullardan ijro etiladigan konkret texnik priyomlardan xarakterlanish texnikasi va priyomlari va usullaridan iborat. Bulardan maydon o'yinchilari va darvozabon foydaniladi. Ammo ayrim priyom va usullar o'zini muayyan turlarga ega usul va turlarga harakatning asosiy mexanizmi bo'lib detallardagina farq bo'ladi. Har hil priyom usul va turlarini ijro etish shartlari futbol texnikasini yanada turli xil qiladi.

Futbol texnikasining klassifikayasi berilgan. O'rganilayotgan materialni sistemalashtirish, priyom, usul, turlarini tuzukroq tushintirishga, ularni to'g'ri taxlil qilishga va olingan bilimlarni takomillashtirish vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilishga yordam beradi.

Futbol texnikasining xarakteristikasi maydon o'yinchisi va darvozabon uchun umumiy kichik bo'lim bo'lgan harakatlanish texnikasidang boshlanadi.

Harakatlanish texnikasi.

Harakatlanish texnikasi qo'yidagi priyomlar guruhini o'z ichiga oladi. YUgurish, sakrash, to'xtash turilish. Harakatlanish klassifikatsiyasi ko'rsatilgan.

O'yin vaqtida harakatlanish texnikasi priyomlarida xilma-xil tarzda qo'shib foydaniladi. Mana, masalan futbolchining harakatlanish tezligi nihoyatda xilma-xil, sekin urishdan boshlab startdagi tezlanishimiz maksimal tezlikka qarab o'zgaradi, yugurishning maromi va yo'nalishi qo'qqisdan o'zgarib turadi. YUgurishning xilma-xil priyomlarini sakrash. To'xtash bir-biri bilan birga qo'shib olib borish futbolchi harakatlanishiga xos xususiyat hisoblanadi.

Harakatlanish texnikasining priyomlari maydon o'yinchilari va darvozabonning to'pni boshqarish san'ati bilan chambarchas bog'liq. Harakatlanish texnikasi priyomlarini kerganicha hamda komplekt tarzda qo'llash ko'p taktik vazifalarini (to'p olish uchun ochilish va raqibini. CHalg'itish, pozitsiya tanlash, o'yinchini to'sib olish va h.q) samarali hal qilish imkonini beradi.

YUgurish. Futboldagi asosiy harakatlanish vositasi yugurishdir. To'pni boshqarayotgan futbolchilar bgurish yordamida maydonda turlicha joylashib oladilar. Bundan tashqari yugurish tarkibiy qism sifatida to'pni boshqarish texnikasiga ham kiradi.

Futbolda yugurishning qo'yidagi priyomlari qo'llaniladi, oddiy yugurish, tisarilib yugurish chalishtirma qadam tashlab yugurish juftlama qadam tashlab yugurish.

Oddiy yugurishdan asosan to'g'ri borayotgan o'yinchilar bush joyda chiqish, raqibni quvish va h.q. qo'llaniladi. Harakat sistemasi ham (bir oyoqqa tayanish va haqoda uchun fazalariga bo'linishi) tuzilishi ham yengil atletika yugurishdan farq qilmagani uchun uni oddiy yugurish deyiladi. Qadam chastotasi va ritmidagi farqi bor, xolos.

YUgurish qadamining uzunligi sprinterlarida 2-,2,2 m ga teng bo'ladi katta beshli futbolchilarda o'rtacha 1,3-1,5 m ga teng. Qadamlar chastotasi sprinterda 4-4,5 qadamga teng. Futbolchilarda chastota sal ortiqroq. Sekundiga 5.1-5.5 qadam

bo'ladi. Bu esa, havoda uchish fazasi qisqaroq bo'lgani sababli tez to'xtashga yoki tez burilib olishga sabab bo'ladi.

Tisarilib yugurishdan asosan to'pni olib qo'yishda va to'sib olishda qatnashayotgan himoyadagi o'yinchilar foydaniladi. YUgurishning bu turi hamqiklik qshaloq qadmali) bo'ladi. Qisqa-qisqa lekin tez-tez qadam tashlash. Havoda uchish fazasining qarib yo'qligi unga xos xususiyatdir. Buning sababi siltanash oyog'i orqaga uzatilganda sonning yozlishi cheklangan ekanidadir.

O'yin sharoiti ko'pincha maksimal tezlikda tisarilib yugurishni talab qilib qoladi. Bunda tezlik qadam chastotasining oshirish hisobiga ortadigan bo'lib, bu ko'proq oyoqning orqaga aktiv harakat qilishiga bog'liq.

Tisarilib yugurayotganda o'yinchi ba'zan muvozonatni yo'qotib yiqilib, Tanyach oyoq vertikal turgan paytda gavdaning og'irlik markazi o'qi tanyach yuzasining tepasida turishi o'yinchining holati turg'un bo'lishi shartlardan biridir.

CHalishtirma qadam tashlab yugurishdan harakat yo'lini o'zgartirish uchun turgan joydan o'ngga yoki chapga siltanib yugurish paytida, burilib olgandan keyin foydaniladi. U harakatlanishning spetsifik vositasi bo'lib asosan boshqa yugurish turlari bilan birga qo'yib qo'llaniladi.

CHalishtirma qadam tashlab yugurish yon tomonga ijro etiladigan yugurish qadamlari bilan xarakterlanadi. Qadam tashlash siklining birida qo'shaloq qadamda siltinuvchi oyoqni oldiga chalishtirib o'tkaziladi. YUgurish paytda havoda uchish fazasi juda qisqa.

Juftlama qadam tashlab yugurishdan taktik jihatdan kerakli holatga o'tishda (masalan o'yinchi oldini tusib olishda foydaniladi) U dastlab harakatlanish fazasi sifatida foydaniladi. Keyinroq o'yindagi vaziyatda qarab harakatlanish texnikasining turli priyomlari sifatida ijro etiladi. Juftlama qadam tashlab yugurish oyoqlarini sal bukib bajariladi. Birinchi qadamni harakat yo'galishiga yaqin oyoqdan boshlab yon tomonga tashlanadi. 2-chi qadamda oqlar juftlanadi. Depsinish va siltanish harakatlarida zo'r berish yuqori tomonga esa balki yon tomonga yo'naltiriladi.

Sakrash, to'xtash va burilish priyomlarining ba'zilarini ijro etishda sakrashdan foydaniladi. Sakrash zarba berishning ayrim to'pni oyoqda, ko'krakda kalla bilan to'xtatib qolish va ba'zi fintlar texnikasining tarkibiy qismiga kiradi. O'yinda oldingi yon tomonlarga yuqoriga hamda shularga yaqin yo'nalishlarga sakraladi. O'yindagi vaziyat ko'pincha maksimal uzun sakrashni talab qilinadi. Bunda sakrashning samaradorligi futbolchining koordinatsion qobiliyati belgilanib futbolchi turli dastlabki holatlardan fazo, vaqt va kuch xarakteristikalari optimal bo'lgan harakatlar qo'yish kerak bo'ladi.

Birinchi xil sakrashlarda depsinish havoda uchish va yerga tushish fazalari bo'ladi.

Ikkinchi xil priyom bor bir oyoqda depsinib sakrash va ikki oyoqda depsinib sakrag.

Bir oyoqda depsinib sakrash oldingga yon tomonlarga yuqoriga bajariladi. Bunday sakrashlar aktiv depsinib, 2-chi oqni silkitib gavda og'irlik markazining o'qi sakrash tomonga o'tkaziladi. Sakrashning troyektoriyasi va kuchi o'yindagi vaziyatga bog'liq bir oyoqda yoki ikki oyoqda yerga tushiladi. Qisqa masofali

qattiq amortizatsiya keyingi harakatlarga tezroq va samaraliroq o'tishi imkonini beradi. Og'irlik markazi o'qining proyeksiyasi tayanch yuzasining chegarasidan yoki undan tashqaridan bo'lishi ham shunga yordam beradi.

Ikki oyoqda depsinib sakrash bunday usul bilan oldingga oldinlab yon tomonga oraliq yo'nalishlarda sakraladi. Turgan joyda sakraganda o'yinchi depsinish oldidan tezda salgina cho'nqayadi.

To'xtash. Harakatlanish texnikasida to'xtashga harakat yo'nalishini o'zgartirishning samarali vositasi deb qaraladi. To'satdan to'xtab qolganda raqibning qayerga, joylashganiga qarab turib to'p bilan ham to'psiz ham o'sha chapga qochib qolinadi.

To'xtashda ikki xil priyom qo'llaniladi. sakrab to'xtash va tashlanib to'xtash.

Sakrab to'xtash uchun sal yuqoriga qisqaroq sakrab siltangan oyoqda yerga tushiladi bunda turg'unlik bo'lsin uchun shu oyoq sal egiladi. Ammo ko'pincha yerga ikki oyoqlab tushiladi.

Tashlanib to'xtash so'ngi yugurish hisobiga bajariladi. Bunda siltangan oyoqning oldinga uzatib tovonga tiralinadi-da, keyin oyoqni rostmana yerga qo'yiladi. Tashlanib to'xtash oyoqlarni anchagina bukib, ikki oyoqq tayanib qoshi bilan xarakterlanadi.

1-chi bor yagona o'yin qoidolari joriy qilishga urinib ko'rish keyinroq futbol klubiga tegishlidir. 1848 yil bu qoidalarni nashr qilishga qaror qilinadi. Afsuski ular bosmadan chiqmay qolib ketadi. SHunga qaramay, Kopingliz kollejlari "Kembrij qoidolari" qoidalar tarzida ma'lum.

Bizgacha yetib kelgan qoidalar esa 1863 yil 8 dekabrda e'lon qilingan. Qo'yidagi o'sha qoidalar teksti "Futbol tarixi uyuyushtirish, texnika trenirovka va taktikasi" Moskva 1927 yil) kitobida qanday e'lon qilingan bo'ladi Xuddi o'shandan keltiriladi.

1. Maydonning bo'yicha 200 yard (183m) dan eni 100 yard (91,5 M0 dan oshmaydi. Maydonning burchaklarida bayroqchalar o'rnatiladi. Ustiga to'sin yotqizilmagan darvoza 8 yarim (7,32 m) oraliqda o'rnatilgan bo'lib, ikkinta ustundan iborat.
2. Kim va qay tomonga o'ynashi qur'a tashlab hal qilinadi. Qur'ada yutqazgan jamoa maydon markaziga qo'yilgan to'pni tepib, o'yinni boshlab beradi. 2-chi jamoa o'yinchilari to'p tepilishiga qarab unga 10 yarim (9.1 m) dan yaqin kela olmaydilar.
3. Darvozaga to'p urilgandan keyin, jamoalar tomonlarni almashadilar.
4. To'p qo'lda ulotqirilmagan. Qo'lda zarba berilmay yoki qo'lda ko'tarib kirilmay, ikki ustun oralig'idan yoki ularning davomi oralig'idan o'tsa darvoza zarb etilgan hisoblanadi.
5. Agar to'p yon chiziqdan tashqariga chiqib ketsa unga hammadan avval tega olgan o'yin to'p chiziqni kesib o'tgan joydan chiziqqa nisbatan to'g'ri burchak hosil qiladigan yo'nalishda to'pni qo'lda maydonga tashlab beradi. To'p yerga tekkan zahoti o'yinga kirgan hisoblanadi.
6. O'yinchi zarb borayotgan paytda uning jamoasining zarb beruvchidan ko'ra raqib darvozasidan yaqinroq turgan o'yinchilari o'yindan tashqari holatda

hisoblanadi va ular to'pga tega olmaydigan yoki raqiblarga halaqit bera olmaydilar.

7. To'p darvoza chizig'idan tashqariga chiqib, ketib chiziqning narayogidan himoyalayotgan jamoa o'yinchisi 1-chi bo'lib unga tegsa shu kelganda darvoza chizig'ining o'yinchi to'pga tekkan joy ro'parasidagi nuqtasidan to'p tepish huquqini oladi. Bordi-yu hujum qilgan jamoa o'yinchisi to'pga darvoza chizig'ining o'yinchi to'pga tekkan joy ro'parasidagi nuqtasidan 15 yarim (13,5 m) maydon ichkarisidagi nuqtadan erkin to'p tepish huquqini oladi. Erkin to'p tepish paytida himoyadagi jamoa top to'p tepilguncha qarab darvoza chizig'idan tashqarida turadi.
8. Agar o'yinchi boshqa o'yinchi zarbasidan uchib, kelayotgan to'pni bevosita qo'li bilan ilib olsa, shu holat ruy bergan joyni belgilab olib. O'sha joydagi erkin tepishi mumkin.
9. O'yinchilar to'pni qo'llariga olib yugura olmaydilar.
10. O'yinchilarni chalish va uzish man etiladi, shuningdek o'yinchini qo'l bilan ushlab to'xtatib qolib yoki turtish man etiladi.
11. To'pni qo'l bilan uzatish man etiladi.
12. Maydon ichida to'pga qo'l tekkizish man etiladi.
13. Tomir va gittaperchadan qilingan joylari turtib chiqqan poyabzalda o'ynash man etiladi.

Ko'rinib turibdiki, 1863 yilgi qoidalar hozirgi qoidalaridan anchagina farq qilgan.

1866 yilda "O'yindagi chaqqonlik" qoidasi yengillashtirdi. Endiki raqiblar sirt chizig'i bilan o'zi o'rtasida qarshi tomon o'yinchilardan uch kishi bor bo'lsa, bu o'yinchi "o'yindan chiqqan bo'lmaydi. Yana shu yili darvoza ustunlarini gorizontalarqon tortib birlashtirishga qaror qilinib arqonning yerdan balandligi 5.5 m qilib belgilanadi. 1871 yildagi golpekir "Darvozabon" ga qo'lda o'ynash ruxsat etiladi. To'p himoyadagi o'yinchiga tegib, sirt chiziqdan maydon tashqarisiga chiqib ketganda burchakda to'p tepish qoidasi 1973 yilda kiritildi.

1875 yili ustunlarni birlashtirib turgan arqon yerdan 2,44 m balandlikda yotqizilgan to'singa almashtiriladi. O'sha yili darvoza to'p kiritilgandan dan keyin tomonlar almashinish qoidasi, o'rniga o'yinchilar tanaffusdan qaytgandan keyin almashish qoidasi joriy qilindi:

1882 yili 4 ta mustaqil futbol ittifoqi Angliya, Shotlandiya va Irlandiya ishbiarmon yagona qoidalar qabul qilinadi va futbol qoidalariga biror bir o'zgartirish kiritish huquqiga ega bo'lgan Xalqaro kengash tasdiqlandi.

Futbol maydonida sudya 1-chi marta 1880-81 yillarda ishtirok etadigan bo'ladi.

1971 yilda Angliya mamlakat kubogi uchun o'yin tashkil etildi.

Halqaro miqyosida 1-chi futbol o'yini 1873 yili Angliya bilan Shotlandiya o'rtasida bo'lib o'tdi.

Maydon o'yinchisining texnikasi.

Maydon o'yinchisining texnikasi 2-ta kichik bo'limdan iborat. Bulardan biri harakatlanish texnikasi bo'ladi, 2-chisi to'pni boshqarish texnikasi.

To'pni boshqarish texnikasiga qo'yidagi priyomlar guruhi kiradi. Zarba berish, to'pni to'xtatish to'pni olib yurish, aldash harakatlari. To'pni olib qo'yish. Bundan tashqari, qo'lda bajariladigan spetsifik priyom yon chiziqning nariyog'idan to'pni tashlab berish ham to'pni boshqarish texnikasiga kiradi.

To'pga zarba berish.

To'pga zarba berish futbol o'yinining asosi hisoblanadi. To'pga oyoq bilan, kalla bilan turli usullarda zarba beriladi.

To'pga oyoq bilan zarba berish, oyoq kaftining ichki tomoni bilan oyoq yuzining ichki. Ichki va tashqi qismlari bilan oyoq uchi bilan, tovon bilan bajariladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.

1. Derkach A.A. Isayev A.A. «Murabbiyning pedagogik maxorati Moskva –1971 yil»
2. Xasiorskiyy V.M. Jismoniy mifatlarni rivojlantirish Moskva –1985 yil.
3. Zasiorskiy V.M. Umumiy urta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarining tashkillashtirish. Moskva – 1986 yil.
4. Matveyev A.P. Sport mashg'ulotlari asoslari. Moskva – 1987 yil.
5. Navatnikov M.YA. «Yosh sportchilarni tayyorlash va uni boshqarish asoslari» Moskva – 1982 yil.
6. Ter-Ovanesya A.A. Sport (o'rgatish) tarbiyalash va mashg'ulot Moskva – 1986 yil
7. Falin v.p. Fomin n.A. «Yosh sportchilar asoslari» – Moskva –1981 yil
8. V.D. Kovolyov , V.A. Golomazov . SA. Kerami , Nas YE.V. Vorojen V.P ratnikov , B.I. trukunov V.S. Teplyakov V.T. Potapov Moskva – 1988 yil.
9. Lopachev YU,N. Sergayev G.M. Nurimov R.N. Sarkiyan R.S. Futbol o'yinning texnikasi. Toshkent- 1998 yil